

O'zbekiston Respublikasi markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to'g'risida

MA'LUMOT*



(Narxlarni ro'yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o'tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o'zgarib turadi. Mazkur ma'lumotlarning shakllanishi jarayonida faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan bo'lib, **supermarket, minimarket, do'kon**lardagi narxlar inobatga olinmagan)

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan mamlakatimizning hududlardagi markaziy dehqon bozorlarida 2019 yil 24 dekabr kuni o'tkazilgan kuzatuv natijalari bo'yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

Mol go'shti
(laxm go'shtidan tashqari)
35000 so'mdan 57000 so'mgacha(kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg mol go'shtining (suyaksiz go'shtidan tashqari) minimal narxi Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori"da qayd etilgan (35000 so'm).


Mol go'shtining maksimal narxlari esa Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori"da kuzatildi (57 000 so`m).

Qo`y go`shti
38000 so`mdan 64000 so`mgacha(kg)



Qo`y go'shtining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko`ra Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori"da (38 000) so`mdan ro`yxatga olingan. Maksimal narxlari esa Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da (64 000)so`mdan kuzatildi.

Kartoshka
1600 so`mdan 4 000 so`mgacha(kg)




Olib borilgan kuzatuv natijalariga ko`ra, kartoshkaning minimal narxi Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori"da (1600 so`mdan), maksimal narxlari esa Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori", "Mirobod dehqon bozori"da (4000 so`m) qayd etildi.

Piyoz
1 200 so`mdan 3500 so`mgacha(kg)



Kuzatuv natijasiga ko`ra, piyoz mahsulotining minimal narxlari Toshkent shahrining “Eski jo`va dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori”da (1 200) so`mdan kuzatildi. Maksimal narxlari esa Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori”da kuzatildi (3500 so`m).

Sabzi
1000 so`mdan 4000 so`mgacha(kg)



Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko`ra Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori” va “Andijon shahar markaziy dehqon bozori”, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Termiz shahrining “Termiz shahar dehqon oziq-ovqat bozori” va “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Yangiyo`l shahrining “Ixtisoslashgan Yangiyo`l shahar dehqon bozori”, Chirchiq shahrining “Chirchiq shahri dehqon bozori”, Farg`ona

shahrining “Farg`ona shahar markaziy dehqon bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da (1000) so`mdan qayd etilgan. Maksimal narxi esa Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”, “Oloy dehqon bozori”da (4 000) so`mdan kuzatildi.

Tuxum

5500 so`mdan 10 000 so`mgacha(10 dona)



Tuxum mahsulotining kuzatuv natijasiga ko`ra, minimal narxi Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da kuzatildi (5500 so`m). Maksimal narxi esa Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Samarqand shahri - “Siyob dehqon bozori”, “Temiryo`l dehqon bozori” va “Damariq dehqon bozori”, Chirchiq shahri - “Chirchiq shahri dehqon bozori”, Urganch shahri - “Urganch markaziy dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori”, “Eski jo`va dehqon bozori” va “Qo`ylik dehqon bozori”da qayd etilgan (10000 so`m).

Guruch

4000 so`mdan 18000 so`mgacha(kg)



Guruch mahsulotlari kuzatuv natijalariga asosan, minimal narx Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon

bozori”da (4000 so`mdan), maksimal narx esa Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori”da kuzatildi (18000 so`m).

O`simlik yog`i
8400 so`mdan 13500 so`mgacha(1 l.)



O`simlik yog`i mahsulotlari kuzatuv natijasiga ko`ra, minimal narxi Toshkent shahrining “Qo`yliq dehqon bozori”da (8 400) so`mdan kuzatildi. Maksimal narxi esa Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori”da (13 500) so`mdan kuzatildi.

Shakar
5200 so`mdan 6500 so`mgacha (kg)



Shakar mahsuloti kuzatuv natijasiga ko`ra, minimal narxi Toshkent shahrining “Eski jo`va dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori”, “Qo`yliq dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (5 200)so`mdan kuzatildi.

Maksimal narxi esa Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori” va “Andijon shahar markaziy dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori” va “Eski shahar dehqon bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”, “Temiryo’l dehqon bozori”, “Damariq dehqon bozori”, Termiz shahrining “Termiz shahar dehqon oziq-ovqat bozori” va “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori” hamda Toshkent shahrining “Eski jo’va dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori”da (6 500) so`mdan kuzatildi.

*)Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuv statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLAR** kesimida amalga oshiriladi (quyida 24 tadan iborat dehqon bozorlari umumiy ro'yxati keltirilgan).

Hududlardagi markaziy dehqon bozorlardagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda dehqon bozori bo'lmagan savdo ob'ektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va xokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019 yil uchun tasdiqlangan Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASH**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlari asosida o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.

Respublika xududlari kesimidagi markaziy dehqon bozorlari RO'YXATI

Qoraqalpog'iston Respublikasi:

Nukus shahri - "Nukus dehqon bozori"

Andijon viloyati:

Andijon shahri - "Yangi bozor dehqon bozori" va "Andijon shahar markaziy dehqon bozori"

Buxoro viloyati:

Buxoro shahri "Buxoro markaziy dehqon bozori"

Jizzax viloyati:

Jizzax shahri – "Jizzax markaziy dehqon bozori" va "Eski shahar dehqon bozori"

Qashqadaryo viloyati:

Qarshi shahri – "Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori"

Navoiy viloyati:

Navoiy shahri - "Saxovat bozori"

Namangan viloyati:

Namangan shahri - "Namangan chorsu dehqon universal bozori"

Samarqand viloyati:

Samarqand shahri - "Siyob dehqon bozori", "Temiryo'l dehqon bozori" va "Damariq dehqon bozori"

Surxondaryo viloyati:

Termiz shahri - "Termiz shahar dehqon oziq-ovqat bozori" va "Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"

Sirdaryo viloyati:

Guliston shahri - "Guliston dehqon bozori"

Toshkent viloyati:

Yangiyo'l shahri - "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori",

Chirchiq shahri - "Chirchiq shahri dehqon bozori"

Farg'ona viloyati:

Farg'ona shahri – "Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori"

Xorazm viloyati:

Urganch shahri - "Urganch markaziy dehqon bozori"

Toshkent shahri

"Oloy dehqon bozori", "Farhod dehqon bozori", "Mirobod dehqon bozori", "Eski jo' va dehqon bozori" va "Qo'yliq dehqon bozori"